

ABDULLA AVLONIYNING "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARIDA INSONIY FAZILATLARNING MOHIYATI

Xamrayeva Sitora Xalil qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo'naliishi talabasi

Tel: +998999518522

gulinilufar7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlarimizning yorqin namoyondalaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniyning mukammal va izchil tarzda bitilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiya, xulq, odob, axloq va ilm borasida bayon etilgan jimjimador jumlalar yoritiladi. Asarning shaxs shakllanishida tutgan o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit So'zlar: yaxshi xulq, tarbiya, tarbiya turlari, qanoat, ilm, sabr, vijdon, vatan tuyg'usi, sadoqat, adolat, mehr-muhabbat. Is

Ma'lumki, inson barkamolligi uning tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki uning ma'naviy dunyosiga qarab belgilanadi. Albatta, jamiyatning ravnaqi va kelajagi ham ana shu jamiyatda yashovchilarning ma'naviy kamolotiga bog'liq bo'ladi. Ma"nan boy va yetuk bo'lish uchun esa insonda insoniy go'zal fazilatlar shakllangan bo'lishi lozim. Ezgu xislatlarni o'zda jam qilish uchun esa tarbiyaviy va axloqiy kitoblar mutolaasi ayni muddao sanaladi. Bu orqali kishi xalqiga sadoqat, fidoyilik, sevgi, vafo, bag'rikenglik, saxovatlilik va jasoratlilik kabi xususiyatlar singdiriladi. Ana shunday insoniylik mezonlari birma-bir ta'riflangan, 1913-yilda bosilib chiqqan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari aziz kitobxonlarning eng sevib va ardoqlanib kelingan, teran va o'zgacha bir ruhda tebratilgan qalam namunasidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adib asar avvalini axloq va xulqqa ta'rif berishdan boshlaydi. Xulqni yaxshi va yomin xulqqa ajratadi. Bu borada esa Rasuli akram nabiyyi muhtaramimizning quyidagi jumlalarini keltiradilar: "Mezon tarozusiga qo'yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan og'irrog'i yo'qdur. Mo'min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro'za tutib ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar". Zero, yuqorida ta'kidlaganimizdek har bir millat saodati va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur.

Muallif tarbiya to'g'risida so'z yuritar ekan, uni tug'ilgan kundanoq boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq va zehnimizni ravshanlashtirmoqligimiz lozimligini uqtiradi. Shu o'rinda barcha uchun shior sifatida tan olingan "Alhosil, tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" kabi purma'no iboralarini keltirib o'tadilar. Shu asnoda tarbiyani uch turga ajratadi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi.

Asarda qanoat va ilm borasida ham juda go'zal jumlalar keltirilgan. Olamda qanoat kabi dilnu poklaydigan narsa yo'qligini eslatib o'tadi. Ilmni esa dunyoning izzati va oxiratning sharofatidur deydi. Olim va fuzalolarning har yerda aziz va hurmatli ekanligini aytadi. Ya'ni jaholatni targ'ib etuvchi johillar hech yerda qadrlanmasligiga ishora qiladi. Yozuvchi sabr, hilm, fatonat, vijdon va muhabbat tuyg'ulariga ham to'xtalib o'tadi va bularning har biri kishini haqiqiy insonga aylantirishi borasida so'z yuritadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Avloniy tarbiyani juda keng ma'noda tushunadi. Shu sababli bolalarni aqliy rivojlantirish bilan birga, jismoniy sog'ligi xususida ham ko'p o'rnlarda to'xtalib o'tadi. Shuni aytish joizki, ta'lim - tarbiya , axloq va ilmni bir - biriga bog'lab, ularni uzlucksiz ravishda yonma - yon olib borish kerak. Chunki tarbiyali va mushohadali yoshlar vatan kelajagidir. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq* asari bizga ana shularni o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq" - T, 2008
- 2.Abdulla Avloniy. "Tanlangan asarlar" - T, 2008
- 3.www.ziyouz.uz